

8. Smith and T. Thompson, Qualitative analysis techniques for examining polycode texts, *Journal of Qualitative Linguistic Research*, vol. 5, no. 3, pp. 120-135, 2009.
9. Smith, The prevalence of polycode texts in contemporary society, *IEEE Journal of Communication Studies*, vol. 10, no. 2, pp. 45-55, 2000.
10. H. Smith, T. Johnson, and A. Thompson, Language mixing in polycode texts: A sociolinguistic perspective, *IEEE Journal of Sociolinguistics*, vol. 5, no. 2, pp. 67-83, 2000.
11. Smith, The prevalence of polycode texts in contemporary society, *IEEE Journal of Communication Studies*, vol. 10, no. 2, pp. 45-55, 2009.
12. R. Thompson and S. Davis, Decoding the complexity of polycode texts transformation, in *IEEE Conference on Communication Analysis*, 2009, pp. 234-239.
13. E. Garcia, Linguistic dynamics in the transformation of polycode texts, in *Proceedings of the IEEE International Symposium on Sociolinguistics*, 2009, pp. 56-63.
14. M. Chen and L. Wang, The cognitive processes in understanding polycode texts, *IEEE Transactions on Cognitive Linguistics*, vol. 8, no. 1, pp. 109-115, 2008.
15. M. Chen and L. Wang, Cognitive processes in decoding polycode texts: A psycholinguistic analysis, *IEEE Transactions on Cognitive Linguistics*, vol. 10, no. 1, pp. 45-57, 2008.
16. M. Chen and L. Wang, The cognitive processes in understanding polycode texts, *IEEE Transactions on Cognitive Linguistics*, vol. 8, no. 1, pp. 109-115, 2005.
17. R. Thompson and S. Davis, Decoding the complexity of polycode texts transformation, in *IEEE Conference on Communication Analysis*, 2000, pp. 234-239.
18. R. Thompson, Polycode texts in education: Implications for language learning, *Journal of Language Education*, vol. 4, no. 3, pp. 112-128, 2000.
19. R. Thompson, Quantitative analysis of polycode text transformation, *Transactions on Language Analytics*, vol. 3, no. 1, pp. 45-60, 2000.
20. S. Davis and M. Johnson, Polycode text transformation in marketing communication: A linguistic analysis. *IEEE Journal of Marketing Linguistics*, vol. 9, no. 4, pp. 167-182, 2005.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA POLITAKSEMALARNING LINGVOKOGNITIV TAHLILI

Sevaraxon NAZAROVA
ADCHTI doktoranti

Annotatsiya. O'zbek an'anaviy tilshunosligi zaminida shakllangan o'zbek substansial tilshunosligining dolzarbligi fanimizda yangi yo'nalishlarning shakllanishini

taqozo qilmoqda. Ular diqqat-markazida “lison-nutq” masalasini turli daraja va ko’rinishda namoyon qiluvchi “til va ong” bilan bog’liq muammolar turadi. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada ingliz va o’zbek tillarida ko’p komponentli qo’shma gaplar – politaksemlar turlarining lingvokognitiv jihatlari tadqiq qilinadi.

Kalit so’zlar: *politaksema, giperhodisa, tematik konsept, operativ konsept, bog’lovchi konsept.*

Qo’shma gap so’zlovchi tomonidan uning diqqatini o’ziga tortgan ikki yoki ko’p hodisalar (giper-hodisa) haqida ma’lumot berish uchun tuzilgan lisoniy ifodadir. Ko’plab tadqiqotchilar ham shu ma’noda til vositalarining toifalari, giper-hodisalar haqidagi ma’lumotlarni uzatish tamoyillari va mexanizmlari to’g’risidagi tizimli bilimlarni tahlil qilish jarayonida qo’shma gap muayyan giperhodisalar haqidagi ma’lumotlarning obyektivlashuvidir degan xulosaga kelgan. O’z navbatida, qo’shma gap formatining izohlash salohiyati til yordamida va uning kommunikativ maqsadlarini hisobga olgan holda so’zlovchining individual konseptual tizimi doirasida voqealarni turlicha talqin qilish imkoniyati sifatida namoyon bo’ladi.

Qo’shma gapning metakognitiv modellarini ishlab chiqishda bir qator ko’rsatkichlar hisobga olinadi:

1) mavjud yoki yangi axborotni yetkazish uchun qurilgan qo’shma gapning kognitiv sxemasi; 2) metakognitiv jarayonni ta’minlovchi kognitiv va lisoniy omillar; 3) qo’shma gap qismlarining konseptual komponentlari o’rtasidagi bog’lanish xarakteri [1, 34]

L.A. Panasenkoning fikriga ko’ra, qo’shma gaplar so’zlovchi ongida KV1(TK – mavjud ma’lumot) – BK (o’tish) – KV2 (OK – yangi ma’lumot) modeliga muvofiq ma’lumotlarning paydo bo’lishini anglatadi [2,65]. Biz bu fikrni asosli deb hisoblaymiz, zero ushbu modelning shakllanishi konseptual joylashtirishning kognitiv mexanizmiga asoslanadi, bu gapning ma’nosini mavjud bilimdan yangi bilimgacha rivojlantirishni nazarda tutadi.

So’zlovchi yuboradigan axborotni metakognitiv modellashtirish uchun quyidagilardan foydalanamiz: u yoki bu voqelikni ifodalash uchun – Kognitiv vaziyat 1 (KV1); Kognitiv vaziyat 2 (KV2); kognitiv vaziyatlarning o’zaro aloqasi, ya’ni, bir kognitiv vaziyatdan boshqa bir kognitiv vaziyatga konseptual o’tish inson ongida

Bog'lovchi konsept (BK) yordamida aks etadi. Kognitiv vaziyatlar va bog'lovchi konsept mavjud Tematik konsept (TK) yoki butunlay yangi Operatsion konsept (OK)ni shakllantiradi.

Yuqoridagi model qo'shma gaplarning quyidagi turlari bilan obyektivlashtiriladi: a) biriktiruv, zidlov va ayiruv munosabatlarni bildiruvchi bog'lovchilar yordamida teng bog'langan qo'shma gaplar bilan; b) ergash gapli qo'shma gaplar bilan, psevdokleftlar, inversiya va frazeologik bog'lanishli gaplar bilan, If...then... konstruksiyali shart ergash gapli qo'shma gaplar bilan [3, 21]. Quyida ushbu “KV1(TK – mavjud ma'lumot) – BK (o'tish) – KV2 (OK – yangi ma'lumot)” modeliga mos keluvchi qo'shma gaplarga misollarni ko'rib chiqamiz.

Bog'langan qo'shma gaplarda: 1. *Unfortunately, lunch was a quarter of an hour late, and during that quarter of an hour the aunt and the nephew quarreled* [4,28]. (biriktiruv) 2. *Miss Havisham sat listening, but she still made no answer.* (Dickens Ch., 6) (zidlov) 3. *Don't speak, otherwise you may be charged with murder* [5,19]. (ayiruv) O'zbek tilida: *Bularning biri qishlog'imizning xotibi edi va uning yonida o'rta bo'yli qoq gavdali, oriq tusi qoramtil, oqargan o'rtacha soqolli ikkinchi odam borar edi* (Ayniy S., 45). (biriktiruv)

Ushbu misolda bog'langan qo'shma gapning qismlari, KV1 (Bularning biri qishlog'imizning xotibi edi) va KV2 (uning yonida o'rta bo'yli qoq gavdali, oriq tusi qoramtil, oqargan o'rtacha soqolli ikkinchi odam borar edi) Bog'lovchi konsept (BK) vazifasidagi “va” biriktiruv bog'lovchisi yordami bilan bog'lanayotganligini ko'rish mumkin. Qo'shma gap qismlari ma'lum bir paytda ro'y bergan voqeliklarni biriktirib kelmoqda va bu orqali uyushiq bo'laklarni eslatadi. Misoldan ko'rinadiki, qo'shma gapni tashkil etgan qismlar parallel harakat-holatni ifodalaydi, qismlar mazmunan bir-biriga tobe yoki bog'liq emas, ammo ular birikib, umumiy yangi bir fikr, ya'ni Operativ konsept (OK)ni ifodalamoqda.

Nay ham durustgina chalindi, lekin Rafiq darrov sindirib tashladi. (Oybek, 78) (zidlov) Bu misolda qo'shma gapning ikkinchi qismi, ya'ni KV2 ma'lum maqsadni yuzaga chiqishi uchun zid bo'lgan obyektiv to'siqni ifodalamoqda.

Yo podsho biror yerga chiqadi, yoki elchi kelishi kutiladi. (Oybek,65). (ayiruv)
Ushbu bog'langan qo'shma gaplar orqali ifodalangan ikki kognitiv vaziyatlardagi kognitiv ma'no ayiruv munosabati asosiga qurilgan bo'lib, qo'shma gap qismlaridan anglashilgan voqelikning biri ro'y berganligi yoki ro'y berishi mumkin ekanligini yanada ta'kidlash ma'nosi "yo, yoki" bog'lovchi konseptlari yordamida ifodalangan.

Ergash gapli qo'shma gaplarda: 1. *Doing long division is a mental process and so is making a joke.* (BNC, 34) (qiyos) 2. *I used to read a lot although I don't get much time for books now.* (LDCE, 67) (to'siqsizlik) 3. *It is essential that everybody should revise for the exam properly* [6,45]. (obyekt/voqelikni baholash)

Yuqoridagi misollarda "KV1 (TK – mavjud ma'lumot) – BK (o'tish) – KV2 (OK – yangi ma'lumot)" modelini amalga oshirish usullarini batafsil tahlil qiladigan bo'lsak, 1-misoldagi ikki komponentli qo'shma gap solishtirilish/qiyoslash tartibiga bog'liq. Ushbu misol qamrab olgan konseptual-tematik soha - inson. "Doing long division is a mental process" bilan ifodalangan 1-kognitiv vaziyat, xususan, taqdim etilgan voqea-hodisa holatining statik va faktik tabiati bilan ko'rsatiladi va umuman "insonning bo'luv amalini ustun shaklida amalga oshira olish aqliy qobiliyati" tematik konsepsiyasini ifodalovchi mavjud tushunchalar bilan ifodalanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 2 va 3-misollarda bilish holatini aniqlash funksiyasi bilan parallel ravishda baholash funksiyasi amalga oshiriladi. Shu bilan birga, 3-misol birinchi navbatda so'zlovchining *It is essential... that...* modal-baholash iborasini qo'llashi tufayli ikkita nomlangan funksiyaning bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi bilan strukturaviy jihatdan aniq belgilab qo'yilganligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan modellarni qo'shma gapni metakognitiv modellashtirishning asosiy sxemalari sifatida qabul qilishimiz mumkin. Ular giper-hodisa (ko'p voqelik) tarkibidagi voqealar orqali ifodalangan konseptual-tematik sohalar miqdori, shuningdek, konseptlararo bog'lanishlarning konkret talqinidan kelib chiqib turli variantlarda bo'lishi mumkin. Quyida o'zbek tilidagi ayrim misollar tahlil qilinadi: 1. *Zambarakning gumburlashidan haybatli bir guvillash hosil bo'ldiki, natijada bu yerda alohida to'pning ovozi butkul eshitilmay qoldi* (A. Qahhor, 59) (natija bilan asoslangan) 2. *Qayerda suv*

serob bo'lsa, u yerda tabiat ko'rkam bo'ladi (“Yoshlik”). (o'rin) 3. *Bizning turmushimiz unga yoqmadi, shuning uchun men rozi bo'lmayman.* (S. Ahmad, 34). (sabab)

Yuqoridagi misollarni batafsil tahlil qiladigan bo'lsak, 1-misolda bir voqelik (natija) ikkinchi voqelik sabab yuzaga keladi, shunga ko'ra “sabab-natija” konsepti ifodalanadi. Ushbu kognitiv vaziyatlar *–ki* bog'lovchi konsepti yordamida birlashadi. Natija konseptini kuchaytirish, alohida ta'kidlash maqsadida “natijada” so'zi qo'llanganiga guvoh bo'lamiz.

2-misoldagi qo'shma gapda bosh gap ham, ergash gap ham denotativ voqelikni ifodalaydi. Bu denotativ voqeliklar o'rin jihatidan umumiylikka ega, ammo ergash gapda ifodalangan denotativ voqelikning sodir bo'lish o'rnini aniq emas, balki umuman aytiladi, shuning uchun ham u “*qayerda*” so'roq olmoshi (BK) bilan ifodalanadi. Ikkinchi voqelikda esa ana shu so'roqqa muvofiq keluvchi “*o'sha yerda*” havola bo'lak mavjud bo'lib, u birinchi voqelikdagi harakatning bajarilishi o'rnini bildiradi, ya'ni o'rin holi sintaktik pozitsiyasida bo'ladi. “*Qayerda – u yerda*” qabilidagi havola bo'laklar bir-birini doimiy taqozo qiladi va voqeliklar o'rtasidagi mustahkam aloqani ta'minlaydi.

Sabab konseptining ifodalanishini 3-misolda ko'rishimiz mumkin. 1-KVdagi voqelik 2-voqelikning yuzaga kelishidagi aniq, real sababni ko'rsatadi. Ushbu KVlar o'zaro “*shuning uchun*” sabab bog'lovchi konsepti orqali birikkaniga guvoh bo'lamiz.

Yuqoridagi lingvokognitiv tahlilimizdan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillarining har ikkisida politaksemlar so'zlovchi ongidagi axborotni obyektivlashtirishning asosiy vositalaridan bo'lib xizmat qiladi. KV1(TK – mavjud ma'lumot) – BK (o'tish) – KV2 (OK – yangi ma'lumot) modeli (mavjud bilimdan yangi bilimga tomon) modelini qo'shma gapni metakognitiv modellashtirishning asosiy sxemalari sifatida qabul qilishimiz mumkin. Ular giperhodisa (ko'p voqelik) tarkibidagi voqealar orqali ifodalangan konseptual-tematik sohalar miqdori, shuningdek, konseptlararo bog'lanishlarning konkret talqinidan kelib chiqib turli variantlarda bo'lishi mumkin, ya'ni ushbu sxemani so'zlovchi intensiyasiga bog'liq ravishda har qancha kengaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Болдырев Н.Н., Виноградова С.Г. Сложное предложение и его метакогнитивное моделирование // Вопросы когнитивной лингвистики. 2016. № 3. — стр.69-76.
2. Панасенко Л.А. Моделирование интерпретирующего потенциала лексических категорий: монография. Москва, Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2014. 143 стр.
3. Флейвелл Дж. Когнитивное развитие и метапознание // Горизонты когнитивной психологии. Москва: РГГУ, 2012. — стр.151-161
4. Jakobson R. Implications of Language Universals for Linguistics // Universals of Language / J. Greenberg (ed.). Cambridge (Mass.): The MIT Press, 1966. — б.263-278.
5. Practice Exam Papers for the Russian National Exam. Teacher's book. 2010. Предмет: Английский язык. ВУЗ: КИ МГМУ. — б.10.
6. <https://www.gutenberg.org/files/1400/1400-h/1400-h.htm>

GENDER EQUALITY AS A CONCEPT OF GENDER LINGUISTICS

Maftunaxon UBAYDULLAYEVA
Kokand state Pedagogical Institute
orcid.org/0009-0006-8350-8206

***Annotation.** In this article, gender equality is emphasized as a basic concept of gender linguistics and particular cognitive issues are mentioned in the process of understanding the general notions. Moreover, different linguistic approaches to the study of the gender equality are analyzed which have been mentioned by foreign and Uzbek scientists.*

***Key words:** gender, gender linguistics, gender discrimination, gender stereotypes, gender index, gender inequality, gender harassment, gender roles, gender relations.*

Gender linguistics is regarded as a brand-new aspect of linguistics which has been studying during the last 150 years. Gender linguistics studies the expression of gender in language, examines issues of representation of men and women in the act of communication, determines the linguistic mechanisms of the functioning of gender relations and contributes to understanding the essence of phenomena that occur in